

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 9 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРЬ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I9Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 9 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Ақтамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Mamajonov Rahimjon Akramovich*
“VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O‘RNI VA ROLI” MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI 10-16
- Облобердиев Жасурбек Косим угли*
МЕРЫ НАКАЗАНИЯ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВВ 17-22

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Турсунов Бекмухаммад Омонович*
МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ МЕЗОН ВА КЎРСАТКИЧЛАРИ 23-34
- Курпаяниди Константин Иванович*
ИССЛЕДОВАНИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ЧЕРЕЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ 35-44
- Ahmedov Shohjaxon*
O‘ZBEKISTONDA SHAKANA SAVDONI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI 45-51
- Кулибоев Азамат Шоназарович*
БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ 52-62
- Рўзиев Абдумалик Ортиғалиевич*
МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШНИ БАҲОЛАШДА МИҚДОРИЙ ВА АХБОРОТ ТАҲЛИЛИ МЕТОДОЛОГИЯСИ 63-73
- Abduraxmanova Shoxida Ravshanovna*
TIBBIYOT MUASSASALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH 74-80
- Davronov Istamxo‘ja Olimovich*
МЕНМОНХОНА ХИЗМАТЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИ ВА СIFATINI BAHOLASH USULLARI 81-86
- Маматов Бахадир Сафаралиевич*
ҲУДУДЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯВИЙ МУҲИТ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ 87-96
- Шолдаров Дилшод Азимиддин ўғли*
КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАР УЧУН НАФАҚА ВА МОДДИЙ ЁРДАМ ТАЙИНЛАШ ВА ТЎЛАШ ТАРТИБИ 97-104
- Баратов Махсудали Назиралиевич*
МИКРОМОЛИЯВИЙ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ 105-116

<i>Ergashev Islom Ismoilovich</i> KESKIN RAQOBAT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	117-127
<i>Қодиров Азизжон Анварович</i> ЎТИШ ИҚТИСОДИЁТИ МАМЛАКАТЛАРИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АМАЛИЁТИ	128-136
<i>Эшонкулов Акмал Кудратович</i> ПРОБЛЕМЫ ПРОВЕДЕНИЯ АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	137-142
<i>Астанов Шерзод Рустамович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИХАЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШНИНГ ТАШКИЛИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	143-150
09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Abdullayev Ibodulla Abdullayevich</i> YOSHLARNI MILLIY G'URUR RUHIDA TARBIYALASHDA OILA VA OILAVIY QADRIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANISH USULLARI	151-155
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> BAHS-MUNOZARALARDA QO'LLANILADIGAN TUZOQLAR VA MANIPULYATSION (SPEKULYATIV) USULLAR	156-164
<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> BARQAROR RAQOBAT USTUNLIGI-RAQOBATBARDOSHLIK OMILI	165-174
<i>Allayarova Marhabo Mavlonovna</i> UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA YOSHLAR BADIY IJODINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI	175-179
<i>Рахманов Баҳодир</i> СИНЕРГЕТИК ТАФАККУР: ФАЛСАФИЙ МЕРОСИМИЗНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ	180-186
<i>Abdiraxmanov Muzaffar Zaripbayevich</i> ABU ALI IBN SINONING XORAZM MA'MUN AKADEMISIDAGI FAOLIYATI	187-191
<i>Mirzaxalov Xojiaqbar Tajibayevich</i> JAMIYATDA GENDER TENGLIGI MUAMMOSINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI	192-197
<i>Azimov Ashirali Mehmonboyevich</i> XOTIN-QIZLAR GENDER MA'RIFATINING IJTIMOY BARQARORLIKKA TA'SIRI	198-202
<i>Azimov Sherzod</i> PHILOSOPHICAL REFLECTION ON THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF SPORT IN SOCIETY	203-207
<i>Абдурахмонович Хасан Иброхимович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ИННОВАЦИОН ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ УСТУВОР ЎНАЛИШЛАРИ	208-216

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi*

QUMAN TOPISHMOQLARINING O'ZBEK FOLKLORIDAGI PARALLEL SHAKLLARI 217-223

Teshabaeva Dilfuza Muminovna, Abduxalilova Gulbaxor Karabaevna

ТУРИЗМ СОҲАСИГА ОИД СЎЗ ВА ИБОРАЛАРНИ ПРЕФИКСЛАР ЁРДАМИДА

ЯСАЛИШИ 224-230

Abdinazarov Uktam Qushoqovich

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GIPPOLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK TADQIQI.. 231-236

Axmedova Shaxodat Maxmutovna

O'ZBEK XALQ PAREMALARIDA SHIFO KONSEPTINING IFODALANISHI..... 237-241

Ruziyev Xusniddin Baxritdinovich

JAHON TILSHUNOSLIGIDA PAREMALAR TADQIQI 242-246

Vositov Otabek Toxirjonovich

TABIATNING ATMOSFERA HODISASI UMUMIY MA'NOSI VA LEKSIK SEMANTIKA

GURUHLARNING STRUKTURAL XUSUSIYATLARI 247-253

Hodir Raхmatullaev

НАЗАР ЭШОНҚУЛ НАСРИДА ШАРПА АРХЕТИПИНИНГ ТАЛҚИНИ 254-260

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР*Мамасобиров Давронбек Эрназарович*

ВАТАНДОШЛАР БИЛАН ИШЛАШ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ 261-270

Urakov Djahongir Rajabovich, Sharipovasror Safar o'g'li

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUN HUJJATLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI

INSTITUTLARNING HUQUQIY ASOSLARI 271-276

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ*Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*

OLIY TIBBIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI HISSIY-KOMMUNIKATIV

KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH 277-281

Umarova Zaxro Abduraxim qizi

TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART FIKRLASH

(THINKING OUTSIDE THE BOX) NING ROLI 282-287

Kadirov Ramz Turabovich

TALABA-AKTYORLARNING SAHNA NUTQIGA OID BILIM VA KO'NIKMALARINI

TAKOMILLASHTIRISHNING SPETSIFIK TEXNOLOGIYALARI (DARS JARAYONIDAGI

MASHG'ULOTLAR MISOLIDA) 288-295

Khabiba Madaminovna Jurabekova

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF LISTENING IN THE FORMATION OF COMMUNICATIVE

COMPETENCE OF STUDENTS IN RUSSIAN LESSONS 296-302

<i>Nishonov Akmal Obidovich, Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich</i> KLAUSTERLI O'ZARO TA'SIR SHAROITIDA INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONINI MODELASHTIRISH MASALALARI	303-310
<i>Ergashev Murodbek Ikromovich</i> MUSIQA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING KREATIV VA IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI	311-316
<i>Utkirov Nusrat Kamilovich</i> BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHNING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLI TA'MINOTINI RIVOJLANTIRISH	317-322
<i>Yulbarsova Xurshida</i> BO'LAJAK SOTSIOLOGLARDA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-PEDAGOGIK JIHATLARI	323-329
<i>Baychayev Fazliddin Xusenovich</i> BO'LAJAK KON-METALLURGIYA SANOATI MUTAXASSISLARINING ELEKTROSTATIKAGA OID NAZARIY BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH	330-335
<i>Muminov Ulmas Ravshanqulovich</i> O'ZBEKISTONDA "MAHALLA INSTITUTI" NING MAHALLIY O'Z-O'ZINI BOSHQARISH – ORGANI SIFATIDA SHAKLLANISHI, UNING HUQUQIY ASOSLARINI YARATILISHI	336-341
<i>Tajibayeva Ma'mura Tojidinovna</i> AJDODLARIMIZ PEDAGOGIK TA'LIMOTLARINI O'RGANISH ASOSIDA TALABALARDA G'OYAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH	342-346
<i>Askarova Zulayxo</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING FIKRLASH DARAJASINI ANIQLASHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI	347-352
<i>Akhmadjonova Diyora Dilshod qizi</i> EXPLORING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THROUGH ONLINE PLATFORMS	352-362
<i>Jumaniyazova Go'zal</i> OLIIY O'QUV YURTI TALABALARINI PIRLSGA YO'NALTIRILGAN TOPSHIRIQLARNI TAYYORLASHGA O'RGATISH METODIKASI	363-367
<i>Xusaiova Leyla Yunusova</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ФОНЕТИКЕ: ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДЫ	368-373
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i> МАТЕМАТИК КРЕАТИВ ТАВСИФДАГИ MASALALARNING BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHINI FANLARARO ABSSESSIAL VA ORDINATAL BOG'LAB SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI VA ROLI	374-379
<i>To'xtasinov Muhammadjon</i> PEDAGOGLAR KASBIY KOMPETENLIGINI OSHIRISHDA UZLUKSIZ METODIK XIZMATNING O'RNI	380-384

Eshnazarov Murod Karimovich

GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA TA`LIM MAZMUNINI RIVOJLANTIRISH

IMKONIYATLARI385-391

13.00.00- Педагогика фанлари

Ergashev Murodbek Ikromovich
Andijon davlat pedagogika instituti
Tasviriy san`at va musiqa ta`limi kafedrası dotsenti
murodjonergashev2023@gmail.com

MUSIQA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING KREATIV VA IJTIMOY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy media atrofdagi dunyoni insoniy o'zlashtirishning murakkab vosita ekanligi, shuningdek, ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lg'usi muhandis-pedagoglarning mediamadaniyatini rivojlantirishning muhim xususiyatlari to'g'risidagi fikr mulohaza va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'limni axborotlashuvi, mediamadaniyat, mediaresurs, zamonaviy media, elektron media, ta'lim funksiyalari.

Ergashev Murodbek Ikromovich
Andijan State Pedagogical Institute
Associate Professor of the Department of Fine Arts and Music Education

AVAILABLE OPPORTUNITIES FOR DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE AND SOCIAL COMPETENCES IN MUSIC EDUCATION

Abstract. This article describes the existing possibilities of developing students' creative and social competences in music education, the goals and tasks of teaching the science of music culture in general secondary educational institutions, and topics related to the acquisition of musical, creative and social knowledge in music lessons.

Key words: music, art, textbook, study guide, teenager, student, musical education, social competence, creative competence, pedagogue, art.

Эргашев Муродбек Икромович
Андижанский государственный педагогический институт
Доцент кафедры изобразительного искусства и
музыкального образования

ДОСТУПНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ И СОЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье описаны существующие возможности развития творческих и социальных компетенций учащихся в музыкальном образовании, цели и задачи преподавания науки о музыкальной культуре в общеобразовательных средних учебных заведениях, а также темы, связанные с приобретением музыкальных, творческих и социальных знаний в музыке. уроки.

Ключевые слова: музыка, искусство, учебник, учебное пособие, подросток, студент, музыкальное образование, социальная компетентность, творческая компетентность, педагог, искусство.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I9Y2023N41>

Kirish. O'zbekiston Respublikasida "Mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash" [1] muhim strategik maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Albatta, jamiyat talab etayotgan bugungi davr yoshlarini tarbiyalash jarayonida milliy musiqa san'ati va musiqa ta'limi rivojiga bo'lgan yuksak e'tibor, muntazam o'tkazib kelinayotgan turli ko'rik-tanlovlar, festivallar musiqa merosimizni asrab-avaylash va o'rganish, yangi iste'dod sohiblarini aniqlash hamda yuksak ijodiy marralar sari ilhomlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, musiqa – kundalik hayotimizda muntazam uchraydigan ijtimoiy va ma'naviy hodisadir.

Yillar davomida musiqa insonning shaxsiy fazilatlarini, uning ma'naviy olamini shakllantirishning muhim vositasi sifatida e'tirof etilgan. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqiy rivojlanish umumiy rivojlanishga o'zgaras ta'sir ko'rsatadi: hissiy soha shakllanadi, fikrlash yaxshilanadi, shaxs san'atda va hayotda go'zallikka intiladi, etik va estetik taassurotlar o'sadi, ijodiy va ijtimoiy xususiyatlar rivojlanadi.

Adabiyotlar sharhi. Mutaxassislar musiqa darslari shaxsning har tomonlama ijodiy rivojlanishiga yordam berishini ta'kidlab, o'z navbatida bu sezgirlikni, badiiy tasavvurni, obrazli-assotsiativ fikrlashni rivojlantirishi, xotirani, kuzatishni, sezgini faollashtirishi va bolaning ichki dunyosini shakllantirishida katta ahamiyatga ega ekanligini keltirib o'tadilar.

Bolalar maktab hayotiga kirib kelgunga qadar bir muncha musiqaga oid bilimlardan xabardor bo'ladi. Shunday bo'lishiga qaramay, o'quvchilarning maktabda musiqiy bilimlarni va musiqa darsini o'zlashtirish jarayoni vatanga muhabbat, yaqinlarga bo'lgan hurmat hissini oshiradi, jamiyatdagi barcha voqeliklarni tushunish, yerdagi va samodagi holatlarni ilg'ay bilish, umuman olganda o'zini va o'zligini anglang qobiliyatlari shakllanadi.

Albatta, musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarga erishish, boshqa fanlar kabi o'qitishning mazmunini belgilovchi darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar – direktiv hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Ma'lumki, yangi O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik ta'minotga bo'lgan talablar keskin o'zgardi. Jumladan, darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar mazmuni tamoman yangilandi, takomillashtirildi. Agar oldingi darsliklarda asosiy e'tibor o'quvchilarga imkon qadar nazariy bilimlarni ko'proq berishga, qoida va ta'riflarni yod oldirishga qaratilgan bo'lsa, yangi avlod darsliklarining mazmuni o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, o'ylashga, hayotiy xulosalar chiqarishga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi.

Muhokama va natija. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati fanini o'qitishning maqsad va vazifalari alohida belgilab keltirilgan (1-rasmga qarang): [2]

- o'quvchilarning ma'naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirish, milliy g'urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijodiy mahorat, nafasat va badiiy didini o'stirish, o'zbek hamda jahon kompozitorlari asarlarini tinglab tushunish va undan zavqlanishga o'rgatishdan iborat

Musiq
fanini
maqsadi



- musiqa madaniyati o'quv fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash orqali ularda kuzatuvchanlikni, musiqiy xotirani, obrazli tasavvur qilishni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni, badiiy va musiqiy didni rivojlantirish va fikr doirasini kengaytirish;
- o'zbek va jahon kompozitorlari asarlarini va turli musiqiy janrlarni bir-biridan farqlay olish, tayanch va umumiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Musiq
madaniyati
fanini
o'qitishning
vazifasi



1-rasm. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati fanini o'qitishning maqsad va vazifalari.

Umumta'lim maktablari 1-7-sinf o'quvchilari uchun yozilgan "Musiq" darsliklari o'quvchilarda musiqa savodxonligini yuksaltirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash, eng muhimi, o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Shu o'rinda, umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun Musiq fanidan yozilgan darsliklar sharhiga biroz urg'u berib o'tilishi maqsadga muvofiq.

1-sinf o'quvchilarini musiqa olamiga olib kirish, ularning musiqiy savodxonligini shakllantirish maqsadida umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun N.Norxo'jayev, G.G'aniyevlar hammuallifligida yozilgan "Musiq" metodik qo'llanmasi [3] hamda N.Nurmatov, N.Norxo'jayevlar hammuallifligida o'quvchilar uchun yozilgan "Musiq" darsligi [4] muhim didaktik ta'minot sanaladi.

Metodik qo'llanmadan dastlab musiqa madaniyati fani bo'yicha 1-sinf o'quvchilariga qo'yiladigan Malaka talablarining berilishi, shubhasiz, musiqa fani o'qituvchilari oldida turgan pedagogik maqsad va vazifalarni yanada aniqlashtirishga, faoliyat strategiyasini to'g'ri belgilab olishga xizmat qiladi. Tavsiya etilgan o'quv qo'llanma o'quv majmua xarakteriga ega bo'lib, darslik, mashq daftari va metodik qo'llanma vazifasini integrativ bajaradi.

Metodik qo'llanma va darslik o'zaro mutanosib, ularda "Biz yoqtirgan kuy va qo'shiqlar", "Musiq olamiga sayohat", "Musiq savodiga sayohat", "Xushnavo milliy cholg'ularimiz" kabi ruknlar ostida nazariy bilimlar qiziqarli, mazmunli berilgan, amaliy qo'llashga uyg'unlashtirilgan.

Umumta'lim maktablari 2-sinf o'quvchilari uchun Musiq darsligi mazmunan boyligi, nazariy bilimlarni o'zlashtirishga poydevor yaratila boshlanganligi bilan xarakterlanadi. Darslikda "Qo'shiq aytish qoidalari", "Yakkanavozlik", "Jo'rovovozlik", "Xonandalar ansambli", "Cholg'uchilar ansambli", "Bolalar ansambli", "Nota bilan kuylaymiz", "Usul berib notalarni sanashni o'rganamiz", "Tonika haqida tushuncha", "Musiqaning ifoda vositalari", "Major va minor", "Dirijyorlikni o'rganamiz", "Kuylang, tinglang, eslang, toping" kabi nomlamalar doirasida o'quvchilarga musiqiy bilimlar berish ko'zda tutilgan.[5]

3-sinf o'quvchilari uchun yozilgan "Musika" darsligidagi o'quv materiallar choraklarga ajratilib, darslar kesimida berilgan. Darslikda 1-2-sinflarda o'rganilgan musiqiy bilimlarni yanada mustahkamlashga, kompozitorlar (Rustam Abdullayev, Farhod Alimov, Habibulo Rahimov, rus kompozitori Пётр Ильич Чайковский) hayoti va ijodi bilan yaqinroq tanishtirishga urg'u beriladi. Nota bilan kuylash, dirijyorlik harakatlari, raqs, musiqaning ifoda vositalari, nazariy tushunchalar talqini haqida bilimlar keng muxtasar yoritilgan. Bolalar uchun eng sara kuy va qo'shiqlar saralanib, notalar bilan berilgan.[6]

4-sinf o'quvchilari uchun Oqilxon Ibroximov tomonidan yozilgan "Musika"[7] darsligi, 5-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Musika"[8] darsliklari quyi sinflar darsliklariga nisbatan ancha murakkablashgan. Darslikda qo'llaniladigan shartli belgilar eslatma tarzida avvaldan beriladi. Bu darsliklarda ham o'quv materiallari choraklar kesimida, mavzularga ajratilib berilgan. Har bir mavzu doirasida nazariy bilimlar o'quvchilarga tushunarli tilda berib borilgan. Mavzular doirasida kuy va qo'shiqlar notalar rasmlar bilan ko'rgazmali berilganligi, QR kod orqali kuy va qo'shiqlarni tinglash imkoniyati yaratilganligi, mustahkamlash uchun choraklar yakunida topshiriqlar, test savollarining berilishi, musika lug'atining taqdim etilishi darsliklarning didaktik ahamiyatini yanada kuchaytirgan.

Umumta'lim maktablarining 6-sinf o'quvchilari uchun S.Begmatov tomonidan yaratilgan "Musika"[9], 7-sinf o'quvchilari uchun hammualliflar Oqilxon Ibrohimov, Jamil Sadirov tomonidan yaratilgan "Musika"[10] darsliklari ham choraklar kesimida, mavzularga ajratilib tizimlangan. Har bir mavzu nazariy bilimlar bilan boyitilgan, amaliyotga uyg'unlashtirilgan, mavzuga doir qo'shiq notalari bilan berib borilgan. Darsliklarda o'quvchilarning musiqiy savodxonligini oshirishga, musika ilmi borasida tafakkur yuritishga, mantiqiy, mustaqil fikrlashga o'rgatishga e'tibor kuchaytirilgan. O'zbek milliy san'ati, uning tub ildizlari, o'ziga xos an'analari, taniqli san'atkorlar, hofizlar, bastakorlar, musika ijodkorlarining zahmatli mehnati, zamonaviy va mumtoz musika, milliy va jahon musiqasi haqidagi nodir bilimlarning o'quvchi yoshi va ruhiyatiga mos tarzda tushunarli berilishi, har bir mavzu oxirida konseptual xarakterdagi savol va topshiriqlar, chorak yakunida nazorat ishlari, boshqotirmalarning taqdim etilishi darsliklarning ilmiy-pedagogik ahamiyatini oshirgan.

Maktab hayotining boshlang'ich davri 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha (1-4-sinflar) bo'lgan yosh oralig'ini egallaydi. Bu davrda o'quvchilarning ham musiqiy bilimlarni ham kreativ va ijtimoiy bilimlarni egallashiga e'tibor qaratiladi. 1-4-sinf oralig'idagi musiqiy, kreativ va ijtimoiy bilimlarni taxminan quyidagi mavzularga ajratish mumkin (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Musika darslarida musiqiy, kreativ va ijtimoiy bilimlarni egallashga oid mavzular

Musiqaga oid bilimlar	1-sinf	Qo'shiq aytish qoidalari; Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganamiz; Milliy cholg'ular bilan tanishish; Doira usullari; Musiqiy tovushlar; Notalar; Kompozitorlar.
	2-sinf	Qanday tovushlarni bilasiz? Yakkanavozlik; Notalarning bo'linishi; Jo'rnnavozlik; Kuy haqida tushuncha; Cholg'ularni farqlash; Takt chizig'i; Musiqaning ifoda vositalari; Major va minor; Rebus.
	3-sinf	Dirijyorlik harakatlari; Pauzalar; Musiqaning ifoda vositalari; Cholg'uchilar ansambli; Xor; Orkestr; Bu

		cholg'ular qanday chalinadi? Nota bilan kuylaymiz; Uchtovushlik; Ton va yarim ton; Musiqa asarining o'zgaruvchan qaytarilishi; Alteratsiya belgilari; Diyez; Bemol; Musiqadagi dinamik belgilar; Oddiy musiqa shakllari; Repzira.
	4-sinf	Xalq qo'shiqlari; Mehnat qo'shiqlari; Lapa; Yalla; O'zbek xalq cholg'ulari; Damli va zarbli cholg'ular; Bayram va marosim qo'shiqlari; Xalq raqslari; Alla aytimlari; Mavsum va marosim qo'shiqlari; Qish fasli qo'shiqlari; Ramazon marosimi aytimlari; Bolalar xalq qo'shiqlari.
Kreativ va ijtimoiy bilimlar	1-sinf	Aziz bo'ston – O'zbekiston; Salom bergan bolalar; Ayiqpolvonlar bog'chasi; Tanishish; Kapalak; Sehrli dunyo; Boboq xo'roz; Bug'doy; O'ynaylik, kuylaylik, qo'shiq aytaylik.
	2-sinf	O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi; Vatanjonim-vatanim; Maktabim; Qizaloq; Ota-onalarga; Yurtim chiroyli; Yangi yilim-yaxshi yilim; Navro'zim – sho'x sozim; Muzqaymoq; Bog' ichida.
	3-sinf	Qushlar; Salom maktab; Diyor madhi; Tinchlik bo'gi; Oltin paxtam – oppog'im; O'zbekiston kemasi; Archa bayrami; Quvnoq bolalar qo'shig'i; Qor; Boychechagim omonlik; Men – g'unchaman; Navro'zim; Baxtiy erkato; Sumalak eng kerak; Lola; Svetafor;
	4-sinf	Shaflotiga savolim; Bolalik; Maktab; Quvnoq bolalar; Yaxshi bola; Vatan mehri; Alla; "Alla" haqida rivoyat; Qorbo'ron; Navbahor; Baxshi jasorati; Nay sadosi; Nisholda; Bahor fasli qo'shiqlari haqida tushuncha; Ko'klam keldi; Bahor elchilari va tabiati; Yoz yaxshi.

Bugungi kunda oldimizda nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiladigan chuqur bilimga ega, yuksak tarbiya ko'rgan, ijodkor avlodini voyaga yetkazish vazifasi turibdi. Bu vazifani amalga oshirishda, avvalo, pedagoglarning o'рни kattadir. Bugungi kunda ustozlar ajdodlarimizning ta'lim-tarbiya to'g'risida bizga meros bo'lib qolgan yozma manbalarida ta'lim-tarbiya talablari belgilangan ibratli qoidalarni chuqur o'rganish, tadqiq etish va ulardagi ilg'or tajribalarni hozirgi zamon pedagogik jarayonlarga tatbiq etgan holda ta'lim-tarbiya ishlarida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Demak, o'quvchi musiqa darslari davomida musiqa qanday yaratilganligini o'rganadi, musiqiy tafakkur qanday shakllanganligini tajribalar orqali egallab boradi. U nafaqat musiqaga oid qoida va tushunchalarni bilishi, balki bu bilimlarni amalda qo'llay olishi kerak. O'quvchi birinchi navbatda majoziy yoki nazariy ma'lumotni idrok qilishni o'rganishi, so'ngra olingan yangi ma'lumotlardan foydalanish darajasidan xabardor bo'lishi kerak. Olingan ma'lumotni yangi sharoitda qo'llashni allaqachon ijodiy vazifani bajarish deb atash mumkin, chunki o'quvchi bilim va ko'nikmalarning butun tizimiga ega bo'lishi lozim.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni / "Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi", 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5085999>
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 17- dekabrda 406-son buyrug'iga 1-ilova. – B. 40.
3. Norxo'jayev N., G'aniyeva G. Musiqa. 1-sinf. Umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. –T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021.
4. Nurmatov N., Norxo'jayev N. Musiqa. 1-sinf uchun darslik. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
5. Norxo'jayev N., Norxo'jayeva Sh., Toshmuhammedova D. Musiqa. 2-sinf uchun darslik. –T.: "KOLORPAK" MCHJ bosmonasi, 2021.
6. Norxo'jayev N., Umidova D., Rashidova N. Musiqa. 3-sinf uchun darslik. –T.: "KOLORPAK" MCHJ bosmonasi, 2022.
7. Ibrohimov O., Musiqa. 3-sinf uchun darslik. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.
8. Mansurov A., Karimova D., Musiqa. 5-sinf uchun darslik. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.
9. Begmatov S., Musiqa. 6-sinf uchun darslik. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
10. Ibrohimov O., Sadirov J., Musiqa. 7-sinf uchun darslik. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
11. <http://manzura90.zn.uz/psixologiya/yosh-davrlari-psixologiyasi/>
12. <https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki/310249-razvitie-tvorcheskih-sposobnostej-uchaschihsj>
13. <https://www.usaid.gov/uz/uzbekistan/press-release/usaid-reaffirms-its-commitment-strengthening-uzbekistans-education-system>.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 9 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).